



MATNLARNI TAHLIL QILISHDA ULARNING FONETIK TAHLILINI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA TUSHUNTIRISH

Muqimjonova Durdonaxon Bobobek qizi

*Farg'ona davlat universiteti Boshlang'ich ta'lif va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi 4-
bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan matnlarni tanishtirishda ularni tahlil qilish va berilgan so'zlarni fonetik tahlilini amalga oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: fono-grafik vositalar, unlilarni birdan ortiq yozish, undoshlarni birdan ortiq yozish, fonetika, geminatsiya.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari har bir sinfda matnlar bilan tanishadilar va 4-sinfda matnlar haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Avvalo ular matnlar bilan tanishadilar. Matn deb nimaga aytilishi, matnlardan qaysi o'rinnarda foydalanish kerakligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Matn bilan tanishib bo'lgan o'quvchilar matnlarni qismlarga bo'ladilar. Matnlardan keyin o'quvchilar gap haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Gapdan keyin so'z va bo'g'in, eng so'nggida harflar bilan tanishadilar. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad o'quvchilar 4yil davomida o'rgangan bilimlarini takrorlash hamda ularni fonetik tahlilga o'rgatish hisoblanadi. So'zlar bilan tanishganlardan so'ng o'quvchilar so'zlarda keltirilgan harflarni tahlil qilishni o'rganadilar.

Matnning har bir qismlarini o'zaro tahlil qiladigan bo'lsa, avvalo nutqqa to'xtolib o'tamiz. Nutq gap orqali ifodalanadiva u bir yoki bir nechta gaplarni o'zaro mazmun jihatdan bog'lanishidan hosil bo'ladi. Shuningdek, nutq ikki xil bo'ladi: og'zaki va yozma nutq. Matn esa nutqning yozma shakli ekanligini o'quvchilar 4-sinf ona tili darsligi orqali bilib oladilar. Matnni qismlarga bo'lish, unga sarlavha qo'yish va reja tuzish mumkun.

Hulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, matnlarni tahlil qilishda ularning fonetik tahlili o'quvchilarni ona tili fanidan bilimlarini oshirishga va ularni harflar bilan bo'qliq savollarga oson javob topishlariga sabab bo'ladi.

Badiiy matnlarni tahlil qilishda jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlari ham alohida e'tibor qaratish zarur. She'riy matnda nutq tovushlarning tez, oson va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga hos jozibador ohang bo'ladi. She'rlarni fonetik tahlilini amalga oshirishda unlilarni qator kelishi, undoshlar takrorini uchratishimiz mukun. Bu she'rlarni jozibalantiradi va o'quvchini esda qolishiga ko'maklashadi. Shuningdek, she'riyatta geminatsiya, ya'ni undoshlarni qavatlashdan ham foyalaniladi. Nasrda undoshlarni qavatlash, unlilarni cho'zish, tovushlarni takrorlash, so'zlarni fonetik qobig'ini o'zgartirib yozish, tovush orttirilishi yoki tovush tushushi kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik taminlanadi. .



Qahramonlar ruhiyatidagi o'zgarishlar, ularning hursand bo'lshi, hafagarchiliklari, biror bir narsani qo'llab-quvvatlashlarini yozuvchilar unli yokiundoshlarni birdan ortiq yozish usuli- fonografik vositalardan foydalaniladi

Matnlarni tahlil qilishda unlilarni birdan oriq yozish usulida qahramonlarning biror bir voqeadan taajjubga tushishi kabi holatlarni ifodalashda foydalaniladi. Unlini cho'zib talaffuz qilish orqali berilgan qahramonlarning voqealarga munosabati yoritiladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari keltirilgan matn mazmunini va unda ro'y berayotgan holatlarni aniq anglaydilar va dars jarayonida o'z fikrlarini muhokama qila oladilar. Unlilarni takror kelishi asar mazmuni aynan ochib beradi. Masalan: - Marhamat... O'-o', kaklikning sayrashini dedingizmi?

Badiiy matnlarda undoshlarni birdan ortiq yozilishiga ham duch kelamiz. Bunda so'zlovchining ichki ruhiyatini anglab olish mumkun. Undoshlarni takror kelishi orqali asar qahramonining siqilish, achchiqlanish, xursandchilik, ikkilanish, ta'sirlanish kabi kechinmalari bilib olinadi va yozuvchi kitobxonga aynan asar mazmunini yetkazib berish uchun undoshlarni birdan ortiq yozish uchun ifodalaydi. Bunda belgining meyordan ortiqligi, harakatning davomiyligi va tovushning balandligi yoki pastligi kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Qahramon ruhiyatidagi keskin o'zgarishlar ham undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ro'y beradi: N-nima qilishim kerak bo'lmasa? Bo'ldi, muddaonnga yetding... Ennasini... bu dunyon! (Sh. Xolmirzayev)

Harakatning oniyligi: Mashia Chuqursoyga qayrilish o'rniغا yo'lning o'rtasida taqqa to'xtadi.

Ovoz kuchining balandligi: "Gurss" degan tovush olamlarni larzaga keltirdi.

Ovoz kuchining pastligi: Yo'lning o'rtasida turgan ilon bir-ikki tis-s-s-s degan ovoz chiqardida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Assonans. Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlikni oshirish maqsadida ushbu fonetik usuldan foydalaniladi. Bunda unlilar aynan takrorlanadi yoki bir biriga yaqin unlilar takrorlanishidan hosil bo'ladi. Unlilarning takrorlanishbadiiy aabiyotda asosan maqollarda uchraydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan matnlarni fonetik tahlil qilishda ularning yosh hususiyatlari ham inobatga olinadi va ushbu jarayonni 2-sinfdan boshlab amalga oshiramiz. Savod o'rgatish davridan so'ng berilgaan kichik hikoyalarda o'quvchilar matnlarda berilgan unlilar va undoshlar sonini aniqlaydilar. Bu albatta fonetik tahlil qilishning boshlanishi hisoblanadi. 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligida o'quvchilar har bir darsda matnlar vakichik hikoyalari bilan tanishadilar va ularni gramatik jihatdan tahlil qiladilar. 2-sinf darsligida keltirilgan matnlarni tahlil qiladigan bo'lsak bunda o'quvchilar matnlarda keltirilgan ajratib ko'rsatilgan so'zlarni fonetik jihatdan tahlil qiladilar. Asosan unli va undoshlar sonini aniqlaydilar. 4-sinf darsligida o'quvchilar undoshlarni farqlashni o'rganadilar. Bunda jarangli vajarangsiz undoshlar haqida ham ma'lumtlarga ega bo'ladilar.



Quyida boshlang'ich sing darsliklarida keltirilgan matnlarning ayrimarini fonetik tahlili bilan tanishib chiqamiz.

"Chumolining jasorati" hikoyasida ajratib korsatilgan **jazirama, qovjirab, tumtaraqay, zarrasi** so'zlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu so'zlarda 19ta undosh harf va 14ta unli harf ishtirok etgan. Bulardan takror undosh va qo'sh undoshni ham uchratishimiz mumkun. Bu o'rinda shuningdek unlilar bo'g'in hosil qilishini, so'zda nechta unli harf bo'lsa shuncha bo'g'in hosil qilish mumkunligini ham eslatib o'tamiz. Ushbu ajratib ko'rsatilgan so'zlarni o'quvchilar bilan bigalikda tahlil qilamiz va ma'nosiga alohida tohtalib o'tamiz. O'quvchilar bilan notanish so'zlarni ma'nosini tushunishda va ularni tahlil qilishda avvalo o'quvchilar fikri so'ralishi va o'qituvchi tomonidan umumiylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, matnlarni tahlil qilishda ularning fonetik tahlili o'quvchilarni ona tili fanidan bilimlarini oshirishga va ularni harflar bilan bo'qliq savollarga oson javob topishlariga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligi
2. 4-sinf ona tili darsligi
3. M. Qurbanov Matn tilshunosligi
4. M. Yo'ldoshev, S. muhammedova, M. Saparniyazova Matn lingvistikasi
5. Internet ma'lumotlari